

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING INGLIZ TILIDA PRODUKTIV MULOQOT KO'NIKMALARINI “VERSATILE” METODIKASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Asiljonova Shohsanam Doniyorovna

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti 3- bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya:

Maqolada maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ingliz tilida produktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda “Versatile” metodikasining pedagogik asoslari, tarkibiy elementlari va samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Metodikaning o'yinli, musiqiy-harakatli va rolli-syujetli faoliyatlarga asoslanganligi sababli bolalarning tabiiy til o'zlashtirish jarayoniga mos kelishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: “Versatile”, metodologiya hamda bosqichlar, o'yinlar, harakatlar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va tabiiy faoliyati – o'yin orqali o'rganish bosqichiga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Maktabga tayyorlov yoshida produktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, ya'ni bola tomonidan mustaqil so'zlash, dialog tuzish, vaziyatga mos ravishda javob berish, savol bera olishi kabi ko'nikmalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Tilni tabiiy, qiziqarli, harakatli va mazmunli faoliyatlar orqali o'rgatish kommunikativ-talimiy yondashuvning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda ishlab chiqilgan “Versatile” metodikasi bolalar uchun multimodal o'quv muhiti yaratadi va ularni faol muloqot jarayoniga jalb etadi.

“Versatile” – bolalarga ingliz tilini tabiiy o'zlashtirish usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bola ona tilini o'zlashtirish jarayonida gaplar mazmunini mustaqil tushunib, ushbu iboralarga o'z reaksiyalarini bosqichma-bosqich bildirish asosida o'zlashtiradi. Mazkur jarayon bir qancha vaqt mobaynida davom ettirilgan holda bolaning mustaqil holda gapirib ketishiga- muloqot jarayoniga kirishiga olib keladi. Aynan shu holat “Versatile” metodini asosiy tamoyili hisoblanib, bolaga turli buyruqlar berish, xatti-harakatlarni ko'rsatib til o'rgatish, kichik hajmdagi she'rlardan, quvnoq qo'shiqlardan foydalanish orqali xorijiy tilda aynan muloqotga erkin kirib keta olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodikaning asosiy *maqsadi* maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda ingliz tilida produktiv muloqot ko'nikmalarini o'yin, harakatli qo'shiqlar, she'rlar va rolli-syujetli faoliyatlar integratsiyasi orqali bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Ushbu metodikaning *vazifalari* sifatida esa quyidagilarni keltirib o'ta olamiz:

1. Metodika asosiga kiritilgan interfaol faoliyatlarning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlash.
2. Bolalarning tinglab tushunish, tezkor javob berish, dialogik nutqqa kirishish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Leksik birliklarni eslab qolish va faol nutqda qo'llash imkonini yaratish.
4. Til o'rganishga motivatsiya va ijobiy emotsional muhitni ta'minlash.
5. Tajriba-sinov jarayonida metodikaning samaradorligini ilmiy asoslash.

“Versatile” metodikasi tarkibi hamda pedagogik asoslarini quyidagicha talqin qilish o`rinlidir.

1. “Zukkojon says” o‘yini

Buyruq asosidagi harakatlar orqali listening comprehension, motor koordinatsiya va tezkor muloqotga tayyorlik shakllanadi. Krashen tomonidan taklif etilgan “comprehensible input” tamoyiliga to‘liq mos keladi.[3]

2. “Cheerful and lively songs” — harakatli qo‘shiqlar

Ritm, intonatsiya va so‘z-harakat uyg‘unligi bolalarda fonetik ko‘nikmalar va emotsional ishtirokni kuchaytiradi.[4]

3. “Action Poems” — harakatli she‘rlar

Multisensor faoliyat orqali eslab qolish osonlashadi, semantik maydon mustahkamlanadi, ijodiy nutq rivojlanadi.

4. “Finger doll” — rolli-syujetli o‘yin

Vygotskiyning “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasiga tayanib, bola muloqotni o‘yin orqali o‘zlashtiradi. Rolga kirish, dialog yaratish, ijtimoiy nutq shakllanadi.[6]

5. “Fly swatter” o‘yini

Leksik birliklarni tezkor tanlash, tasvirni moslashtirish, so‘zlarni faol nutqqa olib kirish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Ayniqsa, vocabulary activation jarayonida samarali hisoblanadi.

“Versatile” metodikasining maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarda amalda qo‘llanilishi ushbu metodika uchun ishlab chiqilgan tadqiqot metodologiyasi hamda uning olib borilish bosqichlarini ishlab chiqishni bevosita talab qiladi. Shunga ko‘ra quyidagi bosqichlar keltirib o‘tilgan:

1-Aniqlovchi bosqich:

- Bolalarning dastlabki muloqot ko‘nikmalari diagnostikasi (kuzatish, suhbat, nazorat topshiriqlari).
- Ingliz tili o‘qitish jarayonining psixolingvistik asoslarini o‘rganish.
- Tadqiqot uchun eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish.

2-Tajriba-sinov bosqichi

- “Versatile” metodikasining 5 metodi asosida muntazam mashg‘ulotlar tashkil etildi.
- Har bir mashg‘ulotda bolalarning muloqotga kirishish faolligi, nutq tempining o‘zgarishi va leksik rivojlanish dinamikasi kuzatildi.
- Fanlararo integratsiya (musiqa, tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya) qo‘llandi.

3-Nazorat va taqriz bosqichi

- Eksperimental va nazorat guruhlarining o‘zlashtirish natijalari taqqoslandi.
- Kuzatuv jurnallari, audiovizual yozuvlar, testlar orqali natijalar tahlil qilindi.
- Mutaxassislar tomonidan metodik taqriz olish orqali yondashuvning didaktik ahamiyati baholandi.

Ushbu bosqichlar asosida ish olib borilganda “Versatile” metodikasini qo‘llash orqali mashg‘ulotlar olib borish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Ingliz tilida sodda dialoglar tuzish, suhbatga kirishish, savol-javob qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.
2. Leksik boylikning kengayishi va uni kontekstda qo‘llay olish qobiliyati shakllanadi.
3. Talaffuz, ritm, intonatsiya va nutq madaniyati yaxshilanadi.
4. Bolalarda muloqotga kirishish, o‘z fikrini ifodalashga nisbatan ishonch ortadi.
5. Tabiiy til muhiti, multimodal metodlar va faol ishtirok asosida o‘zlashtirish sur‘ati oshadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Versatile" metodikasi bolalar uchun moslashtirilgan, o'yinli, harakatli, emotsional jihatdan boy o'quv muhiti yaratib, ingliz tilida produktiv muloqot ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Metodika kommunikativ yondashuv talablari asosida shakllangan bo'lib, tilni tabiiy o'rganishning lingvodidaktik tamoyillariga mos keladi.

O'yinlar bolalarning nutqiy faoliyatga jalb qilinishini kuchaytiradi, musiqiy-harakatli faoliyatlar fonetik va ritmik kompetensiyani rivojlantiradi, rolli-syujetli mashg'ulotlar esa muloqotning mazmuniy yo'nalishini kengaytiradi. Natijada bolalarning ingliz tilida faol, mustaqil, mazmunli muloqotga kirishish darajasi sezilarli ravishda oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cameron, L. (2001). *Teaching languages to young learners*. Cambridge University Press.
2. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford University Press.
3. Krashen, S. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon.
4. Murphey, T. (1992). *Music and song*. Oxford University Press.
5. Slatterly, M., & Willis, J. (2001). *English for primary teachers*. Oxford University Press.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
7. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). *Games for language learning* (3rd ed.). Cambridge University Press.
8. Phillips, S. (1993). *Young learners*. Oxford University Press
9. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining menejerlik ko'nikmasini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar// Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'» № 1/1 N kis — 2025 B 360-368
10. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limda xalqaro hamkorlik ta'lim sifatini oshirish omili sifatida// ҚДПИ «Мақтабгача таълимда халқаро тажрибалар ва замонавий ёндашувлар » mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami 15 май 2024 йил Б 305-308
11. Valiyeva F.R. To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021/